

Ma'lumotlarni saralash 8-sinf

**Toshkent viloyati, Olmaliq shahar, 23-maktab
informatika fani o'qituvchisi
Murodov Umid Abdullaevichning
dars ishlanmasi**

Mavzu: Ma'lumotlarni saralash

Maqsad: 1) **Ta'limiy:** Elektron jadvalda ma'lumotlarni saralash bo'yicha o'quvchilarga bilim va ko'nikma berish;

2) **Tarbiyaviy:** O'quvchilarda Vatanga muhabbat, buyuk ajdodlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

3) **Rivojlantiruvchi:** Ma'lumotlarni saralash bo'yicha olgan bilimlarni amaliyotda va sohalarda qo'llay olish malakasini hosil qilish;

Dars turi: Bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars usuli: Aqliy hujum, savol-javob, aralash.

Dars jihozi: Kompyuter, videoproektor, ekran, 8-sinf informatika darsligi.

Darsning borishi

Darsni tashkil qilish. *Darsni ochiq dars ko'rinishida tashkil etdim. Shu sababli darsni erkin tarzda, hayot bilan, turli fanlar bilan bog'lagan holda olib borishga harakat qildim.*

Dars shiori: *Kuch – bilim va tafakkurda.*

Tashkiliy qism. Salomlashish, navbatchi bayonoti.

Darsni olib borishni quyidagi tartibda belgilab oldim:

1. Ma'naviyat daqiqasi;
2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash;
3. Yangi mavzu bayoni;
4. Kompyuterda amaliyot;
5. O'quvchilarni baholash va uyga vazifa berish;

Ma'naviyat daqiqasi: (5 minut). *O'quvchilarni darsga kirishib olishi uchun ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi. Vatanga muhabbat va ajdodlarimizga hurmat tuyg'usini shakllantirish uchun jamiyatimizdagi yangilik va imkoniyatlar aytiladi. 9-aprelda tavalludining 677 yilligini nishonlaganimiz buyuk sohibquron Amir Temur bobomiz, 26-aprelda tavallud topgan O'zbekiston Xalq Shoiri Muhammad Yusuflar yodga olinadi.*

O'quvchilarga Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Vatanim" she'ridan parcha aytiladi:

Men Vatanni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim.

O'zim hoqon, o'zim sulton,

Sen taxti Sulaymonim.

Yolg'izim, yagonam deymu,

Tutingan koshonam deymu,

O'zing buyuk ulug'lardan

Ulug'imsan Vatanim.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash: (10 minut)

1-qism. (Mustaqil ishlash) O'tilgan mavzuni mustahkamlashda videoproektor va ekrandan foydalaniladi. O'quvchilarga ekranda o'tilgan mavzular bo'yicha Microsoft Power Pointda tayyorlangan, ko'rgazmali 7 ta test ko'rsatiladi. Test shunday tuziladiki, uning birinchi savoli va javobi chiqadi. Har bir o'quvchi o'zi yakka holda to'g'ri javobni belgilaydi. Shundan so'ng savolning javobi kelib chiqadi. Agar javoblari to'g'ri bo'lsa 1 balla, noto'g'ri bo'lsa 0 ball yordamida baholanadi. O'quvchilar o'zlarini o'zlari baholaydilar. 7 ta testdan 6 va undan yuqorisin topgan o'quvchilarga rag'bat kartochkasi tarqatiladi. Test quyidagi namunada bo'lishi mumkin.

1. Microsoft Yexcel qanday dastur?

a) Elektron jadval b) Matn protsessori c) Dasturlash tili *Javob: a)*

2. Yexcel da tayyorlangan hujjat qanday kengaytma bilan saqlanadi?

a) .doc b) .ppt c) .xls *Javob: s)*

3. Microsoft Yexcel dasturining piktogrammasini ko'rsating.

a)  b)  c)  *Javob: a)*

4. Excelda  piktogrammasi qanday vazifani bajaradi?

a) Katakchalarni rangini aniqlaydi b) Katakchalarni birlashtiradi

c) Katakchalarni o'chiradi *Javob: b)*

5. Excelda qaysi matematik funksiya sonning kvadrat ildizini hisoblaydi?

a) Znak(son) b) Koren(son) c) abs (son) Javob: b)

6. Microsoft Excelda katakchalarga qanday murojatlar bor?

a) nisbiy b) absolyut c) nisbiy va absolyut Javob: c)

7. Excelda diagrammalardan foydalanish uchun qaysi piktogrammani bosish kerak?


a)  b)  c) Javob: b)

2-qism. (Savol-javob). **Σ**istahkamlashni ikkinchi qismi o‘yin tarzida olib bordim.

Bilamizki, bu yil Prezidentimiz tomonidan “Obod turmush” yili deb e’lon qilindi.

Obod turmush uydan boshlanadi. Bu tadbirni ijrosi sifatida qishloq va shaharlarda zamonaviy uylar qurilayapti, qishloqlar obodlashmoqda. Shundan kelib chiqib men ham o‘quvchilar bilan birgalikda **“Obod uy”** qurishni niyat qildim.

O‘quvchilarga Power Point dasturi ochib qo‘yilib, savollar beriladi. Javob aytilganda **“Obod uy”**ning qismlari bitib boraveradi. Me’yordagi savollarga javob aytilsa, uy bitadi. “Obod uy” sodda bo‘lsada quyidagi ko‘rinishda bo‘adi.




Yangi mavzu bayoni: (12 minut) Mavzu bevosita amaliyot bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun hamda o‘quvchilar mavzuni yaxshi tushunishi uchun yangi mavzuni ekraandan foydalangan holda tushuntirdim.

Biz kundalik hayotimizda saralash tushunchasiga ko‘p bora duch kelganmiz. Masalan, oddiy sinf o‘quvchilarini “A’lochilar”, “Yaxshilar” va “Qoniqarli” baholarga o‘zlashtiradiganlarga ajratish kabi.

Xuddi shunday Elektron jadvalda ham ma'lumotlarni saralash tushunchasi mavjud. Excelda bunday saralash masalalari **filtrlash** usuli orqali hal etiladi.


Filtrlash(saralash) – berilgan satrni qanoatlantiruvchi satrlarini ajratib olishdir.

“O‘quvchining yangi o‘quv yiliga olishi kerak bo‘lgan narsalari ” jadvali misolida filtrlash usulini ko‘rib chiqamiz. 1-rasmdagi jadvalda o‘quv quroli va kiyim , ularning narxlari keltirilgan.



	A	B	C	D	E	F	G
1	O'quvchining yangi o'quv yiliga olishi kerak bo'lgan narsalari						
2	T/r	Nomi	O'quv quroli	Kiyim	Narxi		
3	1	Ruchka	ko'k	-	300		
4	2	Qalam	to'plam	-	1500		
5	3	Ko'ylak	-	oq	35000		
6	4	Shim	-	qora	40000		
7	5	Daftar	katak	-	300		
8	6	Sumka	sifatli	-	25000		
9	7	Oyoq kiyimi	-	sifatli	40000		
10	Jami:	7	4	3	142100		
11							


Maqsadimiz, o‘quv qurollari va kiyimlarni alohida ajratib olishdir. Saralashga kirish uchun jadval nomlarining birortasini belgilab, **Ma'lumotlar**(Данные) menyusining **Filtr**(Filtr) bo‘limidan **Avtofiltr**(Автотр) ni tanlaymiz (2-rasm)
Natijada 3-rasmdagi kabi har bir nom yonida filtrlash belgisi hosil bo‘ladi:



	A	B	C	D	E	
1	O'quvchining yangi o'quv yiliga olishi kerak bo'lgan narsalari					
2	T/r	Nomi	O'quv quroli	Kiyim	Narxi	
3	1	Ruchka	ko'k	-	300	
4	2	Qalam	to'plam	-	1500	
5	3	Ko'ylak	-	oq	35000	
6	4	Shim	-	qora	40000	
7	5	Daftar	katak	-	300	
8	6	Sumka	sifatli	-	25000	
9	7	Oyoq kiyimi	-	sifatli	40000	
10	Jami:	7	4	3	142100	
11						

1-rasm

2-rasm



3-rasm

Saralashni “O‘quv quroli” yoki “Kiyim” nomli ustunlarning birortasi orqali bajarishimiz mumkin. *(Ekkranda amaliy ko‘rsatiladi.)* U yerdan turli xil shartlar bo‘yicha tanlash imkoniyati tanlashimiz mumkin. (4-rasm)



4-rasm

Masalan kiyim ustunini tanlaylik.

Natijada tanlagan shartimiz bo‘yicha quyidagi filtrlangan jadval hosil bo‘ladi:

Файл Правка Вид Вставка Формат Сервис Данные Окно Справка					
A2 fx T/r					
	A	B	C	D	E
1	O'quvchining yangi o'quv yiliga olishi kerak bo'lgan narsalari				
2	T/r	Nomi	O'quv quroli	Kiyim	Narxi
5	3	Ko'ylak	-	oq	35000
6	4	Shim	-	qora	40000
9	7	Oyoq kiyimi	-	sifatli	40000
11					

Boshqa tushuntirishlar ham amaliy ko'rsatiladi. Shu bilan birgalikda mavzuni yoritish davomida o'quvchilarga savollar berilib, faol qatnashgan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi.

Jadvaldan filtrlash belgisini olib tashlash uchun **Ma'lumotlar** (Данные) menyusining **Filtr** (Filtr) bo'limidan **Avtofiltr** (Avtofiltr)dagi belgini olib tashlash kifoya.

Shuni aytish kerakki, ma'lumotlarni saralashni mukammalroq tushunish uchun Excelda ko'proq amaliy mashqlar bajarish kerak bo'ladi.

Kompyuterda amaliyot. (15 minut) *Mavzu yoritilgandan so'ng, o'quvchilar kompyuterga o'tiradilar. Ularga ma'lumotlarni saralash bo'yicha topshiriqlar beriladi. Ular topshiriqlarni bajarish davomida o'qituvchi ularga amaliy yordam berib boradi.*

Vazifa sifatida darslikdagi mashqlarni berish, mavzudagi mashqni turli shartlar bo'yicha o'zgartirish yoki hayotiy bir masalani aytish mumkin.

Rag'batlantirish: (3 minut) O'quvchilar dars davomida qatnashishiga va faolligiga qarab hamda rag'bat kartochkalari sarhisob qilinib baholanadi

Uyga vazifa: Mavzuni o'qib, amaliy mashqlar bajarib, 127-betdagi mashqlarga tayyorgarlik ko'rib kelish.